

Mohira TOSHBEKOVA,
E-mail:aslzoda2005@gmail.com
University of science and technologies
Yoshlar bilan ishslash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i
Tel: (90)9448710

Renessans ta'lim universiteti professori, f.f.d O.R.Musayev taqrizi ostida

WAYS TO ELIMINATE IDEOLOGICAL THREATS IN SOCIAL LIFE

Annotation

Elimination of ideological threats in social life, formation of immunity against ideological threats in the spirituality of the population, especially the youth, has become one of the urgent tasks of the agenda. The negative consequences of various foreign ideas and threats pose a great threat to the development of society in a violent and dangerous environment. The fact that the negative effects of globalization are increasing every second requires awareness and vigilance from all of us. This article discusses the scientific views and practical recommendations of expert scientists.

Keywords: ideological immunity, elimination of ideological threats, threat tolerance, ideology, youth spirituality, ideological threat, foreign ideas, national idea

ПУТИ УСТРАНЕНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКИХ УГРОЗ В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ

Аннотация

Устранение идеологических угроз в общественной жизни, формирование иммунитета против идеологических угроз в духовности населения, особенно молодежи, стало одной из актуальных задач повестки дня. Негативные последствия различных иностранных идей и угроз представляют собой большую угрозу развитию общества в насилийной и опасной среде. Тот факт, что негативные последствия глобализации усиливаются с каждой секундой, требует от всех нас осознания и бдительности. В данной статье рассматриваются научные взгляды и практические рекомендации ученых-экспертов.

Ключевые слова: идеологический иммунитет, устранение идеологических угроз, толерантность к угрозе, идеология, духовность молодежи, идеологическая угроза, чужие идеи, национальная идея.

IJTIMOIY HAYOTDA MAFKURAVIY TAHDIDLARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Annotatsiya

Jamiyat hayotidagi mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish, aholi, ayniqsa, yoshlar ma'naviyatida mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish kun tartibidagi dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Turli yot g'oyalar va tahdidlarning salbiy oqibatlari shiddatli va xavfli muhitda jamiyat taraqqiyotiga katta xavf tug'dirmoqda. Globallashuvning salbiy oqibatlari har soniyada ortib borayotgani barchamizdan ogohlilik va hushyorlikni talab etadi. Ushbu maqolada ilmiy mutaxassislarning ilmiy qarashlari va amaliy tavsiyalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: mafkuraviy immunitet, mafkuraviy tahdidlarni bartaraf etish, tahdidga toqat, mafkura, yoshlar ma'naviyati, mafkuraviy tahdid, yot g'oyalar, milliy g'oya.

Kirish. Mafkuraviy xurujlar va g'oyaviy tahdidlarning salbiy nafaqat bir mamlakat ijtimoiy hayotining, balki yer sayyorasining umumiy iqlim o'zgarishi va ekologik tahdidlarning ortib borishi, milliy davlatchilik va ma'naviy qadriyatlarga tahdid, «ommaviy madaniyat»ning keng tarqalishi natijasida ba'zi millat va elatlarning milliy mentalitetining tubdan o'zgarishi va yo'qolishi, odamlarning turmush tarzi, tafakkur qilish doirasining o'zgarishiga olib kelmoqda. Agar bu salbiy oqibatlarni chuqur tahlil qildigan bo'lsak, bunday ishlarni amalga oshirish ayrim davlatlarning maqsadi hisoblanib, buni amalga oshirish yo'lida turli xildagi buzg'unchi g'oyalardan foydalanib kelayotganligini ko'rish mumkin. Masalan, ayrim xorijiy davlatlar har yili bir necha yuz minglab qo'shiq va kliplarni suratga olib internet orqali tarqatishi, bularda asosan ommaviy madaniyat va hayosiz ko'rinishdagilari targ'ib qilinayotganligi mafkuraviy tahnidni namoyon etyapti. Shu bilan birga minglab fahsh va zinoni namoyon qiluvchi internet saytlari yaratilayotganligi g'oyaviy xurujlarni keskin kuchaytirayti.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy hayotdagi g'oyaviy tahdidlarni bartaraf etish yo'llari, usullari va vositalarining falsafiy tahlillarida birinchi Prezident I.A.Karimov va faylasuf olimlar A.G'aniyev, Y.Kokarevalarning falsafiy asarlari va qarashlaridan foydalanimagan. Axborot tarqalish tezligi, har tomonlama rivojlanshining keskin sur'atlari bizning mamlakatimizda ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Mamlakatimiz birinchi Prezidenti I.Karimov «Yuksak ma'naviyat—yengilmas kuch» asarida «Davlat va siyosat arboblari, faylasuf va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqda»[1]. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda. Albatta, bu fikrlarning barchasida ham ma'lum ma'noda haqiqat, rasional mag'iz bor...Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda. Bunday ta'rif, menimcha, ko'p tomonidan masalaning mohiyatini to'g'ri ifodalashga da'vat etadi.

Shu o'rinda Y.G'aniyevning keltirgan ma'lumotlarini aytib o'tish o'rinni deb hisoblayman, «Amerika psixiatrlari assotsiasiyasi bergan ma'lumotlarga ko'ra, elektron savdoning 20 foizi pornografiyaga aloqador bo'lib, o'zini «seks-eddikts» deb atovchi 2 million kishi har kuni bir necha saatlab vaqtini shunga sarflaydi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, elektron pornografiya reklama uchun eng kam mehnat va mablag' sarflab katta foyda beruvchi (30 foiz) soha hisoblanadi. Yangi elektron bozorning 70 foizini pornografiya, 4 foizini video o'yinlar, 2 foizini esa sport tashkil etmoqda»[2]. Yovuzlikni targ'ib etayotgan chet el jangari filmlari, kompyuter o'yinlarining yoshlarimizni saatlab bir joyda «qotirib» qo'yayotgani, san'atning estrada yo'nalishiga kirib kelayotgan ayrim «zamonaviy» deb nom olgan yo'nalishlar va qo'shiqlar, kliplar shu bilan birga, yengil-yelpi hayotni aks ettirayotgan kinofilmilar, kiyinish, so'zlashuv madaniyatini targ'ib qilayotgan reklama roliklari, umuman bizning o'zbekona mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan holatlarga yo'l qo'yilayotgani achinarlidir.

Globallashuv jarayonlarida O'zbekistonda ijtimoiy hayotdagi ma'naviy tahdidlarning ko'rinishlari quyidagilar misolida salbiy ta'sirini namoyon etmoqda:

- 1) yot g'oya va mafkuralar, g'oyaviy bo'shliq;
- 2) «ommaviy madaniyat», ma'naviy va axloqiy tubanlik;

- 3) axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik;
 - 4) milliy-ma'naviy qadriyatlarga bepisandlik va ularni qo'porishga qaratilgan xatarli holatlar;
 - 5) axloqsizlikni madaniyat deb bilish hamda asl ma'naviy qadriyatlarni mensimaslik;
 - 6) yoshlarda milliy-ma'naviy qadriyatlarga bepisandlik bilan qarash hissiyotini uyg'otish[3].
- Globallashuv jarayonlarida O'zbekistonda ijtimoiy hayotdagi jarayonlarda ma'naviy tahdidni oldini olish omillari quyidagilar:

- 1) mustaqil fikrga ega bo'lish, mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- 2) ona-vatanga muhabbat, boy tarixiy merosimizni hurmat qilish;
- 3) milliy o'zlikni anglash, fan texnika yutuqlaridan ezgu maqsad sari foydalanish;
- 4) dunyo taraqqiyotida erishayotgan yutuqlar va unga tayanishdan iborat.

Globallashuv

jarayonlarida

O'zbekistonda ijtimoiy hayotdagi ma'naviy tahidlardan himoyalish omillari:

- 1) mustaqil fikrga ega bo'lish;
- 2) hayotiy-milliy qadriyatlarga umume'tirof etilgan demokratik prinsiplarga tayanish;
- 3) sog'lom dunyoqarash va mustahkam irodaning mavjudligi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Globallashuv jarayonlarida O'zbekistonda ijtimoiy hayotda milliy g'oyaga ehtiyojning ortib borishi yoshlarmizni «ma'naviy-mafkuraviy tahdid»lardan himoyalash zarurati bilan bog'liqdir. O'zbekistonda ijtimoiy hayotda va siyosiy jarayonlarda milliy g'oyaning eng muhim funksiyasi, ya'ni milliy va ma'naviy o'zlikni himoyalash alohida ahamiyat kasb etadi[5].

Aslida milliy g'oyaning 1) bilish; 2) tarbiyaviy; 3) reguliyativ; 4) kommunikativ; 5) normativ, qadriyatli; 6) safarbar etish, yo'naltirish; 7) himoya; 8) g'oyaviy bandlik kabi funksiyalarni bajarishi uchun yoshlar va aholi ongida faqat bilim, tasavvur sifatida emas, ishonch va e'tiqod sifatida shakllanishi lozim. Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va jamiyat hayoti muayyan g'oya va mafkura bilan bog'liq bo'ladi. Unda jamiyat oldiga turgan maqsadlar o'z ifodasini topadi.

Ikkinchidan, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar g'oyaviy tahidlarda qarshi kurashuvchanlik ehtiyojini oshiradi. Bu uning negizlarini asrab-avaylash va yangilab, rivojlantirib borishni taqozo etadi. Bugungi globallashuv jarayoni ijtimoiy hayot sohalariga ta'sir ko'rsatmasdan qolmaydi. U o'ziga xos o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu o'zgarishlar qaysi sohalarga, qanday darajada ta'sir ko'rsatayotganligini bilish muhim[6]. Uning ta'sir darajasi, sur'ati ham har xil bo'ladi.

Buning sababi avvalo, insonlarning bunday global o'zgarishlar sharoitida uning milliy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatiga, ishonch va e'tiqodiga bog'liq;

1) ayrim insonlar bu o'zgarishlarni shunchaki qabul qilishi mumkin. Boshqacha aytganda global ta'sirlarga hech qanday javob bermasdan o'z e'tiqodlarini, ishonchlarini ham o'zgartirib, osonlikcha «shunchaki uning ta'siriga tushadi» va «qabul qiladi»;

2) ayrim insonlar esa bu o'zgarishlarning salbiy jihatlariga o'zidagi ma'naviy, mafkuraviy «immunitet»ni qarshi qo'yadi. Uning ta'sir kuchi global ta'sirdan yuqori bo'lganligi uchun ham globallashuv jarayoni unga unchalik ta'sir ko'rsata olmaydi yoki ishonch va e'tiqodiga ta'siri sust bo'ladi;

3) shunday odamlar, xalqlar, millatlar borki ularni globallashuv holatlari ta'sir doirasiga olishi mutlaqo mumkin ham emas[7].

Bunday xalq yoki millatga mansub bo'lgan odamlar ham o'zligini shunday darajada anglab yetganki, tashqi ta'sirlarning har qanday darajasiga o'zlarining ma'naviy salohiyatlari bilan javob bera oladilar. O'zligini saqlab qolish, milliy-ma'naviy qadriyatlariga tayangan holda o'ziga xos va mos rivojlanish yo'liga ega bo'lish, ularning hayotiy falsafasiga aylanib, ishonch va e'tiqodi darajasiga ko'tarilgan. Ularga ortiqcha targ'ibot ham, tashviqot ham unchalik kerak emas. Faqat davr o'zgarishlari, avlodlaridagi yangilanishlar, ong va tafakkur, dunyoqarashdagi o'zgarishlar ta'sirida bo'lishi, unga ham o'zgarishlar olib kirish ehtimoli ularni xushyorlikka, ogohlilikka undaydi[8].

Jahon mafkuraviy maydonida hozirgi vaqtidagi hayot sur'atlarini cheksiz darajada tezlashuvi, eng shiddatli axborot, telekommunikasiya sohasining rivojlanishi butun yer yuzini qamrab olayotganligi hammamizga ma'lum. «The Royal Pingdom» tahliliy kompaniyasining bergen ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda yer yuzida 2,1 mlrd internetdan foydalanuvchilar bo'lib, shundan 44 foizini Osiyo mintaqasida yashovchilar tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich Yevropa mintaqasida 23 foizni, Shimoliy Amerikada 13 foizga yaqin, Afrikada 6 foiz, Yaqin Sharqda 3 foiz, Avstraliya mintaqalarida esa 1 foizni tashkil etadi. Umumiyo ko'rsatkichning yarmidan ko'pini 25 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Shuningdek, 2012 yilda 555 mln.dan ortiq veb-saytlar dunyo aholisiga xizmat ko'rsatib kelgan bo'lsa, shundan 300 mln.ga yaqini 2011 yilda yaratilgan. Bundan tashqari, 2011 yilning yakunlari bo'yicha 3,15 mlrd. elektron pochtalar ro'yxatga olingan. 2012 yilning iyun oyidagi ma'lumotlarga ko'ra, dunyo bo'yicha «Facebook» ijtimoiy tarmog'i – 950 mln. va «Twitter» mikroblock xizmati – 200 mln.dan ziyod auditoriyaga ega.

Tahlil va natiyalar. Hozirgi kunda Internet yoshlarmizning intellektual salohiyatini oshirish bilan birga, ongini zaharovchi manba sifatida ham ta'sir o'tkazayotgani hech kimga sir bo'lmay qoldi. Bugungi kunda ayrim telekanallar orqali xalqning milliyligiga rahna soluvchi, ko'proq vahshiylikni, narkomaniya, fohishabozlik va shunga o'xshash jirkanchi illatlarni targ'ib qiluvchi dasturlarning berilishi kuchayib bormoqda. Bu esa o'z navbatida ayrim hollarda bizning mamlakatimizga ham o'z ta'sirini o'tkazib, milliyligimizga, qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga va shu bilan birga madaniyat tushunchasidan uzoqlashuvhaham olib kelayotganligini ko'rishimiz mumkin. Chunki biz faqatgina yoshlarga e'tibor qaratib, ularni yet g'oyalardan himoya qilib, o'zimiz xohlagandek tarbiyalamoqchi bo'lsak, lekin o'zimiz bunga amal qilmasak, bu hech qachon samara bermaydi. Shuning uchun ham barchamiz kim ekanligimizni, ota-bobolarimiz kim bo'lganligini, ular qanday buyuk ishlarni amalga oshirib butun dunyonlari lol qoldirganlarini doimo his etib yashashimiz lozim. Shuni ham aytib o'tish lozimki, hozirgi kunda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularga berilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan yoshlarmiz xalqaro olimpiadalarida, sportda, san'at sohasida dunyodagi eng kuchli tengdoshlari bilan bellashib g'olib chiqayotganliklari katta g'urur va iftixon bag'ishlaydi. Lekin, oramizda shunday insonlar borki yoshlarga o'rnak bo'lish o'rniga, zamon bilan hamnafas yashash kerak deb, g'arbcha urf-odatlarga taqlid qilib yoshlarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqdalar. Shu o'rinda aytish muhimki, zamon bilan hamnafas yashash degani kalta yubka kiyish, kechqurun istagan vaqtida kelish yoki ketish, televizor yoki internet orqali turli behayo narsalarni ko'rish, jamoat joylaridan hech ikkilanmay bir-biriga be'mani so'zlarni aytish, ko'chada bir-birini quchoqlab yurish, sigareta chekish yoki spirtli ichimliklar ichib yurish emasligini yoshlarga va kattalarga tushuntirish kerak.

Shunday qilib, ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar va turli g'oyaviy tahidlarni bartaraf etish yo'llari ijtimoiy-siyosiy

jarayonlarni tashkil qiladi va bu jarayonlar o‘z texnologiyalariga ega mexanizmlar harakatida namoyon bo‘ladi. Mafkuraviy immunitetni shakllantirish turli g‘oyaviy tahididlarni bartaraf etish texnologiyasi bilan bir qatorda turadi. Ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar O‘zbekistonda jarayon sifatida ijtimoiy va siyosiy hayot o‘rtasidagi bog‘liqlikning natijasi sifatida muhim ahamiyatga egadir. Chunki «turli g‘oyaviy tahididlarni bartaraf etish va mafkuraviy kurashuvchanlikni shakllantirish avvalo xususiy va umumiylar harakterdagi harakat, bu harakat rivojlanish jarayonida ham nazariy ham amaliy jihatdan umuminsoniy tajriba to‘plangan». Bunda optimal yechimga mushtarak maqsadlar asosidagi tashabbuskorlik orqali erishiladi.

Xulosa. Xulosa o‘rnida keltiriladiki, biz avvalo, fuqarolarimizda, asosan yoshlarimizda axborotlardan foydalananish madaniyatini shakllantirishimiz lozim. Hozirgi kunda biz insonning manfaati va kamoloti, jamiyatimizning taraqqiyotiga xizmat qiluvchi axborotlarni qabul qilishimiz, saralashimiz va hayotga talqin etishga xizmat qiluvchi bilimlarni, qobiliyatni, malakani shakllantirishimiz kerak. Yana shuni ham yodda tutish kerakki, biz hozirgi vaqtida o‘zligimizni yo‘qotmasligimiz, kechagina paydo bo‘lgan turli xil bo‘lmag‘ur g‘oyalarga ergashib ketavermasligimiz kerak. Bu narsani o‘sib kelayotgan yosh avlodlar ongiga turli xil tadbirlar orqali singdirishimiz kerak. Bunday tadbirlar tashkil qilinganda avvalo, tomoshabinlar yoshi, jinsi, kasbi e’tiborga olinishi shart. Bu ishlarni amalga oshirishda asosiy vositalardan biri OAV lari hisoblanadi. Hozirgi vaqtida bo‘lmag‘ur xorij seriallarini qayta-qayta qo‘yguncha, o‘zimizning milliy qahramonlarimiz haqidagi filmlar, mustaqillikka erishish davrlari qanchalik mashaqqatligi bo‘lganligi, bunga turli xildagi qarshiliklar bo‘lmasin biz bularni yengib o‘tganligimiz haqida, o‘z bilimi bilan xalqaro olimpiadalarda g‘olib bo‘lib dunyoga tanilgan bolalarimiz va ularning kelajaklari haqida, dunyoni lol qoldirayotgan sportchilarimiz haqida, fidoiy insonlarimizning mamlakatimiz kelajagi uchun olib borayotgan faoliyatları haqida, kerak bo‘lsa hozirgi zamonni tarix bilan bog‘lab turli xil kino va seriallar olish dolzarb vazifalarimizdan hisoblanadi. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun Yurtimizda barcha imkoniyatlar va qulayliklar yaratilgan. Biz shulardan foydalangan holda o‘zbekona urf-odatlarimizni, qadriyatlarimizni, mehr-oqibatimizni, oilaga va Vatanga sadoqat kabi fazilatlarimizni nafaqat o‘zimizning yurtimizda, balki, butun dunyoga targ‘ib qilishimiz kerak.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 173 b.
2. G‘aniyev A. G‘arb olamidagi axloqiy muammolar. T.: Voris, 2007. – 26 b.
3. Кокарева Ю. А. Глобализация и национальная безопасность: факторы взаимовлияния // Молодой ученый. 2015. - № 9. - С. 978-981.
4. Toshbekova M.X. Interethnic harmony as a factor in combating interethnic harmony as a factor in combating ideological threats in the context of globalization // The Light of Islam, № 1 2020 yil– P. 74-82
5. Otamuratov S. Globallashuv va milliy – ma’naviy xavfsizlik. – Toshkent, O‘zbekiston, 2013.
6. Turaev B. Globallashuv va mafkuraviy immunitet. <http://old.bukhari.uz/index>.
7. Toshbekova M.X. Concept basis of the study of problems of national ideology in the context of globalization// Asian Journal of Multidimensional Research – (AJMR) ISSN: – R. 2278-4853 № 4 Vol 10, Issue 4, Impact Factor: SJIF 2021 = 7.699
8. Toshbekova M.X. Globallashuv sharoitida mafkuraviy to‘qnashuv va oqibatlari//Farg‘ona davlat universiteti ilmiy xabarlari –Farg‘ona: 2022 № 3.– B. 50-57